



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 370 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
<i>Niyozova Shahlo Abdusaitovna</i>	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
<i>Pulatova Dilfuza Baxramovna</i>	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
<i>Saidova Sumbuloy Otabayevna</i>	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
<i>Yunusova Dildora Hamrakulovna</i>	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtaidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
<i>Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi</i>	
Особенности иммунного статуса при аллергодерматозах у жителей ташкентской области.....	338
<i>Саипова Н. С., Абдуллаева Ф. Б.</i>	
Aqliy xaritalar va mnemotexnikani birlashtirib, bolalarning fikrlashini o'stirish.....	343
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
Математическое развитие по STEAM технологиям	349
<i>Садикова Д. Х.</i>	
Adaptive Trust-Aware Multi-Criteria Decision Method for Artificial Intelligence Systems: A Conceptual Framework and Mathematical Model	353
<i>Yuldashev Nodirbek Abdumannob o'g'li</i>	
Kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalari rivojlanishiga ta'siri.....	360
<i>Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li</i>	
Yapon olimlari ayollarining kompetensiyaviy yondashuvini oliy ta'limda qo'llash istiqbollari	365
<i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna</i>	



YAPON OLIMA AYOLLARINING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVINI OLIY TA'LIMDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna

KIUT Namangan filiali

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada yapon olim ayollarining ta'lim natijalarini aniq kompetensiyalar, talabning mustaqil faoliyati, jamoaviy mas'uliyat, refleksiya va ijtimoiy tajriba bilan bog'laydigan ilmiy-pedagogik yondashuvlarini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish istiqbollari tahlil qilingan. Yaponiyada shakllangan natijaga yo'naltirilgan ta'lim, "Tokkatsu"ga xos yaxlit rivojlanish, faol o'qitish, hamkorlikda qaror qabul qilish va nokognitiv ko'nikmalarni akademik tayyorgarlik bilan integratsiyalash mexanizmlari kompetensiyaviy paradigma nuqtai nazaridan talqin etilgan. Qiyosiy tahlil asosida mazkur tajribani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy ta'lim maqsadlari, mehnat bozori ehtiyojlari, akademik an'analar va talabalarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga moslashtirish zarurligi asoslangan. Maqolada kompetensiyalar matritsasi, portfolio, loyihaviy topshiriq, refleksiv baholash va universitet-ish beruvchi hamkorligiga tayangan adaptiv mexanizm taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, yapon olim ayollari, oliy ta'lim, ta'lim natijalari, Tokkatsu, nokognitiv kompetensiyalar, refleksiya, adaptatsiya, baholash, akademik mobillik.

Abstract: The article examines the prospects for adapting the pedagogical ideas of Japanese women scholars who connect learning outcomes with clearly defined competencies, independent student activity, collective responsibility, reflection, and social experience. It interprets outcome-oriented education, the Japanese holistic model of Tokkatsu, active learning, collaborative decision-making, and the integration of non-cognitive skills with academic preparation through the lens of competency-based higher education. The study argues that Japanese practices should not be mechanically transferred to Uzbekistan; instead, they should be culturally and institutionally adapted to national educational goals, labour-market expectations, university traditions, and students' socio-cultural characteristics. A prospective adaptive framework is proposed, combining competency matrices, learning portfolios, project-based assignments, reflective assessment, and sustainable university-employer cooperation.

Key words: competency-based approach, Japanese women scholars, higher education, learning outcomes, Tokkatsu, non-cognitive competencies, reflection, adaptation, assessment, academic mobility.

Аннотация: В статье анализируются перспективы адаптации научно-педагогических идей японских женщин-исследователей, связывающих результаты обучения с конкретными компетенциями, самостоятельной деятельностью студента, коллективной ответственностью, рефлексией и социальным опытом. Рассматриваются результативно ориентированное обучение, японская модель целостного образования Tokkatsu, активные методы, совместное принятие решений и интеграция некогнитивных навыков с академической подготовкой. Обосновывается, что применение японского опыта в высшем образовании Узбекистана должно осуществляться не посредством механического переноса, а на основе культурно-педагогической адаптации, согласования с национальными образовательными целями, запросами рынка труда и институциональными возможностями университетов. Предложены перспективные механизмы: матрица компетенций, портфолио, проектные задания, рефлексивное оценивание и устойчивое взаимодействие университета с работодателями.

Ключевые слова: компетентностный подход, японские женщины-учёные, высшее образование, результаты обучения, Tokkatsu, некогнитивные компетенции, рефлексия, адаптация, оценивание, академическая мобильность.

KIRISH

Jahon oliy ta'lim makonida bilimni reproduktiv o'zlashtirishga asoslangan an'anaviy paradigmadan talabning turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, muammoni hal etishi, jamoada ishlashi va o'z faoliyati natijalarini refleksiv baholashini ta'minlaydigan kompetensiyaviy paradigmaga o'tish jarayoni kuchaymoqda. Mazkur jarayon raqamli iqtisodiyot, kasblar mazmunining tez o'zgarishi, mehnat bozorida transversal ko'nikmalarga talabning ortishi va universitet diplomining amaliy qiymatini aniq natijalar bilan isbotlash zarurati bilan



bog'liq. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini ma'lumotlar yig'indisi sifatida emas, balki bilim, amaliy harakat, qadriyat, motivatsiya, kommunikatsiya va mas'uliyatning integral birligi sifatida tashkil etishni taqozo qiladi. Shu sababli oliy ta'limda o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish, fanlar kesimida kutilgan natijalarni aniqlash, baholash mezonlarini ochiq belgilash va talabani akademik hamda ijtimoiy faoliyatini yagona rivojlanish trayektoriyasiga birlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Yaponiya ta'lim tizimi ushbu masalada o'ziga xos tajribaga ega. Unda yuqori akademik natijalar bilan bir qatorda intizom, hamkorlik, jamoaviy mas'uliyat, o'zini boshqarish, muloqot madaniyati va kundalik hayotiy vazifalarni bajarish qobiliyati ta'limning muhim natijasi sifatida qaraladi. OECD tahlillarida Yaponiya ta'lim islohotlarining uch tayanch yo'nalishi: bilim va texnik ko'nikmalarni egallash, fikrlash–hukm chiqarish–ifodalash qobiliyatini rivojlantirish hamda o'rganishga motivatsiya va bilimni hayotda qo'llashga tayyorlik bilan izohlanadi ^[7]. Bu uchlik kompetensiyani faqat kasbiy operatsiyalar majmuasiga kamaytirmasdan, shaxsning intellektual, ijtimoiy va axloqiy resurslarini birlashtiruvchi murakkab tuzilma sifatida tushunish imkonini beradi. Yapon pedagogik tafakkurida kompetensiyaning mazkur keng talqini, ayniqsa, olima ayollar tomonidan olib borilgan qiyosiy ta'lim, oliy ta'lim sifati, yaxlit tarbiya va global mobillik tadqiqotlarida yaqqol ifodalangan.

Ryoko Suneyosi yapon maktab madaniyatini qiyosiy nuqtai nazardan o'rganib, ta'lim natijasi darsdagi akademik o'zlashtirish bilangina cheklanmasligini, balki sinf jamoasini tashkil etish, umumiy vazifalarni bajarish, navbatchilik, muhokama, o'zaro yordam va maktab hayotini birgalikda boshqarish jarayonlarida ham shakllanishini ko'rsatadi ^[5: 6]. Uning "Tokkatsu" konsepsiyasida kognitiv va nokognitiv rivojlanish o'zaro ajratilmaydi: talabani yoki o'quvchining mustaqilligi shaxsiy individualizm emas, balki jamoa manfaatini anglagan holda tashabbus ko'rsatish, vazifani oxiriga yetkazish va natija uchun javob berish qobiliyati sifatida tushuniladi. Ushbu yondashuv oliy ta'limda guruh loyihalari, talabalarning o'zini o'zi boshqarishi, muammoli seminarlar, xizmat orqali o'qitish va universitet hayotida faol ishtirok kabi shakllarni kompetensiyalar rivojlanishining real muhitiga aylantirish uchun nazariy asos bo'la oladi.

Yukari Matsuzuka natijaga yo'naltirilgan kompetensiyaviy ta'limni Yaponiya va Yevropa tajribasi kesimida tahlil qilib, kompetensiyalar ro'yxatini universal va madaniy jihatdan neytral me'yor sifatida qabul qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotida universitet professor-o'qituvchilari, talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilar muhim deb hisoblaydigan kompetensiyalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi ko'rsatilgan ^[4]. Demak, kompetensiyaviy modelning samaradorligi faqat natijalarni aniq yozishga emas, balki ularni kim, qanday ijtimoiy ehtiyoj va qaysi madaniy kontekst asosida belgilashiga ham bog'liq. Bu fikr O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega: yapon tajribasini qabul qilish jarayonida milliy malaka talablari, sohaviy standartlar, ish beruvchilar ehtiyoji, talabalarning ta'limiy tajribasi va universitetlarning resurs imkoniyatlari o'zaro muvofiqlashtirilishi lozim.

Reyko Yamada Yaponiya universitetlarida XXI asr liberal ta'limi va bakalavr kompetensiyalarining joriy etilishini o'rganib, ta'lim dasturlari bilan jamiyat va sanoat kutilmalari o'rtasidagi muloqot yetarli darajada institutsionallashtirmagan hollarda islohotlarning mazmuni jamoatchilikka to'liq anglashilmasligini ko'rsatadi ^[9]. U kompetensiyaviy ta'limni tor kasbiy tayyorgarlik bilan tenglashtirmasdan, ma'lumotlar bilan ishlash, fanlararo fikrlash, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya va ijtimoiy innovatsiyalarga tayyorlikni liberal ta'limning yangi mazmuniga kiritishni asoslaydi. Shu jihatdan yapon olima ayollarining yondashuvlari ikki o'zaro bog'liq yo'nalishni qamrab oladi: birinchisi, kompetensiyalarni ochiq va o'lchanadigan natijalarga aylantirish; ikkinchisi, o'lchash qiyin bo'lgan, ammo shaxs va jamoa rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mas'uliyat, hamkorlik, refleksiya va fuqarolik ishtiroki kabi sifatlarni saqlab qolish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda N. A. Muslimov hamda B. X. Xodjayev ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. N. A. Muslimovning kasbiy kompetentlikka oid tadqiqotlarida pedagog faoliyati bilim va ko'nikmalarning oddiy yig'indisi sifatida emas, balki maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, texnologik va ekstremal vaziyatlarda namoyon bo'ladigan integral kasbiy sifat sifatida talqin qilinadi ^[1: 2]. Ushbu yondashuvda kompetentlikning mazmuni mutaxassisning muayyan vazifani bajarish qobiliyati bilan cheklanmay, pedagogik vaziyatni diagnostikalash, maqbul qaror tanlash, innovatsion usuldan foydalanish, muloqotni boshqarish va o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish kabi funksiyalarni qamrab oladi.

Muslimov tomonidan taklif etilgan kompetentlik tuzilmasi yapon olima ayollarining yaxlit rivojlanish g'oyalari bilan uyg'un: har ikki yondashuvda ham natija faqat bilim miqdori bilan emas, subyektning mas'uliyatli harakati, ijodiy munosabati va real vaziyatdagi samarali xulqi bilan aniqlanadi. Ayniqsa, pedagogik kreativlik va refleksiyani kasbiy kompetentlikning ichki mexanizmi sifatida belgilash Yaponiyadagi faol o'qitish, jamoaviy vazifa va mustaqil qaror qabul qilish amaliyotlarini O'zbekiston oliy ta'limiga moslashtirishda metodik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

B. X. Xodjayevning umumiy pedagogika, didaktika, pedagogik mahorat va ta'lim jarayonini loyihalashga oid ishlarida esa ta'lim maqsadi, mazmuni, metodi va baholashi o'rtasida tizimli muvofiqlikni ta'minlash



masalasi ustuvor o'rin tutadi ^[3]. Olimning pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tushuntirishi kompetensiyaviy yondashuvning muhim sharti - kutilgan natijalarni o'quv faoliyati va nazorat vositalari bilan konstruktiv bog'lash imkonini beradi.

Xodjaye yondashuvda talabani biling faolligi, mustaqilligi, pedagogik muloqot va ta'limiy vaziyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari bir-biridan ajratilmaydi; bu holat Suneyosi ta'riflagan akademik va nokognitiv rivojlanishning integratsiyasiga yaqin turadi.

Ikki o'zbek olimi qarashlarini umumlashtirganda, kompetensiyaviy ta'limni samarali tashkil etish uchun uchta nazariy xulosa shakllanadi:

- *birinchidan*, kompetensiya shaxsning bilim, harakat va munosabatlarini birlashtiruvchi integral natijadir;
- *ikkinchidan*, uni shakllantirish uchun muammoli, loyihaviy, hamkorlikdagi va refleksiv faoliyat zarur;
- *uchinchidan*, baholash talabani faqat yakuniy javobini emas, vazifani bajarish strategiyasi, muloqoti, mustaqilligi va o'zgarish dinamikasini ham qayd etishi kerak.

Mazkur nazariy qoidalar yapon tajribasini mahalliyashtirishda milliy pedagogik maktab bilan tashqi innovatsiya o'rtasida metodologik ko'priq vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada yapon olimi ayollarining kompetensiyaviy yondashuvini O'zbekiston oliy ta'limida qo'llash istiqbollari aniqlash uchun o'zaro to'ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi orqali kompetensiya, kompetentlik, ta'lim natijasi, nokognitiv ko'nikma, yaxlit ta'lim va refleksiv baholash tushunchalarining mazmuni ilmiy manbalar asosida ochib berildi; ushbu tushunchalarning o'zaro nisbati pedagogik kategoriyalar tizimida aniqlashtirildi. Qiyosiy-pedagogik metod Yaponiya va O'zbekiston oliy ta'lim muhitlarida kompetensiyaviy islohotlarning maqsadlari, institutsional shartlari, baholash an'analari va ijtimoiy kutilmalarini taqqoslashda ishlatildi. Bunda tashqi shakllarni solishtirish bilan cheklanilmay, har bir amaliyotni vujudga keltirgan madaniy, tashkiliy va aksiologik omillar ham hisobga olindi.

Kontent-tahlil metodi Yukari Matsuzukaning natijaga yo'naltirilgan ta'limga oid tadqiqoti, Ryoko Suneyosi rahbarligidagi Tokkatsu konsepsiyasi, Reyko Yamadaning XXI asr liberal ta'limi bo'yicha xulosalari, OECDning Yaponiya ta'lim siyosatiga oid hisoboti, shuningdek, N. A. Muslimov va B. X. Xodjaye asarlaridagi asosiy mazmun birliklarini ajratish uchun qo'llanildi. Manbalarda takrorlanuvchi "aniq natija", "faol ishtirok", "hamkorlik", "mas'uliyat", "refleksiya", "mehnat bozori bilan aloqa" va "madaniy moslashuv" kategoriyalari kodlanib, ular asosida konseptual matritsa tuzildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida yapon olimi ayollarining kompetensiyaviy yondashuvini O'zbekiston oliy ta'limida qo'llash uchun besh komponentdan iborat adaptiv mexanizm nazariy jihatdan asoslandi.

Birinci komponent – kontekstual kompetensiyalar profili bo'lib, unda har bir bakalavriat yoki magistratura dasturi uchun kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijtimoiy mas'uliyat, raqamli savodxonlik, madaniyatlararo muloqot va refleksiya natijalari aniqlanadi. Profil ish beruvchi talabalarining mexanik ro'yxati emas, akademik jamoa, talabalar, bitiruvchilar va sohaviy tashkilotlar ishtirokida kelishilgan natijalar tizimi bo'lishi lozim.

Ikkinchi komponent - kompetensiyalarni o'quv faoliyatiga xaritalash. Bunda har bir kompetensiya qaysi fan, modul, amaliyot, loyiha yoki auditoriyadan tashqari jarayonda shakllanishi va qanday murakkablik bosqichlaridan o'tishi belgilanadi. Yapon Tokkatsu tajribasidan kelib chiqib, talabalar kengashi, volontyorlik, ilmiy to'garak, guruh loyihasi, universitet tadbirlarini tashkil etish va hamkorlikdagi muammo yechimi ham ta'lim natijalarining dalili sifatida tan olinishi mumkin.

Mavzu doirasidagi asosiy ilmiy polemika Yukari Matsuzuka va Ryoko Suneyosi qarashlarini qiyosiy talqin qilish orqali ochiladi; ular o'zaro bevosita bahs yuritmagan bo'lsa-da, kompetensiyaviy ta'limning maqsadi va chegaralari haqida ikki farqli metodologik pozitsiyani ifodalaydi. Matsuzuka natijaga yo'naltirilgan kompetensiyaviy modelning afzalligi sifatida ta'lim mazmuni va daraja proffillarining shaffoflashishi, kredit va malakalarning taqqoslanishi, talabani akademik mobilligi hamda universitet-mehnat bozori aloqasining kuchayishini ko'rsatadi ^[4]. Biroq u Yaponiya va Yevropa so'rovlarida ish beruvchilar, akademiklar, talabalar va bitiruvchilar ustuvor deb hisoblagan kompetensiyalar bir-biriga to'liq mos kelmasligini qayd etib, universal ro'yxatlarni ehtiyotkorlik bilan qo'llashga chaqiradi. Uning mantig'iga ko'ra, kompetensiyaviy ta'limning legitimligi natijalarni kim belgilashi, ular qaysi mehnat va ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmat qilishi hamda global mobillik sharoitida bir hududda qadrlangan sifat boshqa hududda qanday qabul qilinishi bilan bog'liq.

Suneyosi yondashuvida esa asosiy urg'u natijalarni tashqi subyektlar talabiga muvofiq kataloglashdan ko'ra ta'lim muhiti orqali "yaxlit inson"ni rivojlantirishga beriladi ^[5; 6]. Tokkatsuda mas'uliyat, hamkorlik, yetakchilik va o'zini boshqarish alohida modulda o'qitiladigan abstrakt ko'nikma emas; ular kundalik vazifalar, jamoaviy muhokama, umumiy mehnat va rollarni almashib bajarish jarayonida tabiiy shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyani juda mayda va o'lchanadigan elementlarga ajratish uning axloqiy, munosabatli va vaziyatli tabiatini yo'qotishi mumkin. Matsuzuka pozitsiyasi hisobdorlik va transferni, Suneyosi pozitsiyasi esa yaxlitlik va madaniy mazmunni himoya qiladi. Birinchi yondashuvga ko'ra, aniq deskriptorsiz universitet natijalarni isbotlay olmaydi; ikkinchi yondashuvga ko'ra, faqat deskriptorlar bilan cheklangan tizim ta'limning yashirin, ammo muhim ijtimoiy natijalarini ko'rmay qoladi.

O'zbekiston oliy ta'limi uchun maqbul yechim ushbu pozitsiyalardan birini mutlaqlashtirish emas, balki ularni dialektik birlashtirishdir. Kasbiy va raqamli kompetensiyalar uchun aniq indikatorlar, standartlashgan rubrikalar va portfolio dalillari zarur; hamkorlik, fuqarolik mas'uliyati va akademik halollik kabi sifatlar esa uzoq muddatli kuzatuv, refleksiv matn, jamoaviy mahsulot va vaziyatli baholash orqali aniqlanishi kerak. Bahsning yana bir qirrasini universitet avtonomiyasi bilan ish beruvchi ehtiyoji o'rtasida namoyon bo'ladi. Matsuzuka ish beruvchilar bilan maslahatlashuvni muhim deb hisoblasa-da, ularning kutilmalari mintaqalar kesimida farq qilishini ko'rsatadi; demak, universitet faqat joriy vakansiyalarga mos ijrochi tayyorlaydigan institutga aylanmasligi lozim. Suneyosidagi yaxlit ta'lim g'oyasi universitetning madaniy, axloqiy va fuqarolik missiyasini saqlab qolishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yapon olimi ayollarining ilmiy-pedagogik qarashlari kompetensiyaviy yondashuvni oliy ta'limda faqat natijalarni standartlashtirish vositasi sifatida emas, balki talabani akademik, kasbiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlantirishini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida qo'llash imkonini beradi.

Yukari Matsuzuka kompetensiyalarni ochiq ifodalash, ta'lim natijalarini manfaatdor tomonlar bilan kelishish va global mobillik sharoitida madaniy farqlarni hisobga olish zarurligini asoslaydi; Ryoko Suneyosi esa hamkorlik, mas'uliyat, o'zini boshqarish va jamoaviy tajribani ta'limning ajralmas natijasi sifatida ko'rsatadi.

Reyko Yamada qarashlari universitet ta'limi, sanoat va jamiyat o'rtasidagi muntazam muloqotni, shu bilan birga, liberal va fanlararo kompetensiyalarni saqlab qolishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари: ўқув-методик қўлланма. - Тошкент: Sano-standart, 2015. - 120 б.
2. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси: монография. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. - 128 б.
3. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти: дарслик. - Тошкент: Sano-standart, 2017. - 416 б.
4. Matsuzuka Y. Validity of Outcome-oriented, Competency-based Education in the Age of Global Student Mobility: Implications from an EU-Japan Comparative Study on Competencies Expected of University Graduates // Higher Education Forum. - 2020. - Vol. 17. - P. 1-20. - DOI: 10.15027/48951.
5. Tsuneyoshi R. The Japanese Model of Schooling: Comparisons with the United States. - New York; London: RoutledgeFalmer, 2001.
6. Tsuneyoshi R., Sugita H., Kusanagi K.N., Takahashi F. (eds.). Tokkatsu: The Japanese Educational Model of Holistic Education. - Singapore: World Scientific, 2020. - 327 p.
7. OECD. Education Policy in Japan: Building Bridges towards 2030. - Paris: OECD Publishing, 2018. - DOI: 10.1787/9789264302402-en.
8. Kimura D. Advancing 21st Century Competencies in Japan. - New York: Center for Global Education at Asia Society, 2017.
9. Yamada R. Status of 21st-Century Liberal Arts Education: Curriculum Reform in Japanese Universities and Evaluation by Society // Education Sciences. - 2024. - Vol. 14, No. 11. - Art. 1156. - DOI: 10.3390/educsci14111156.
10. Ergashbaev, S. (2025). O 'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Ob'yedinia studentov: mezhdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mezdu dissiplinaami, 1(1), 314-316.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.